

Jamiyat va boshqaruv

Общество и управление / Society and Administration

2026/1(111)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI



Toshkent – 2026



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI

JAMIYAT VA BOSHQARUV

Общество и управление / Society and Administration

2026/1(111)

YEVROSIYO IQTISODIY HAMJAMIYATI: SHAKLLANISH EVOLYUTSIYASI VA BOSHQA INTEGRATSION MODELLAR BILAN QIYOSIY TAHLILI

Anvar YULDASHEV,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi

“Yangi O'zbekiston” maktabi professori, tarix fanlari doktori.



Annotatsiya: ushbu maqolada postsovet makonida, xususan, Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya jarayonlarining institutsionallashuvi Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyati (YevrAzES) misolida tadqiq etiladi. Tashkilotning 1995- yildagi Bojxona ittifoqidan boshlab, 2000-yilgi Ostona shartnomasigacha bo'lgan tarixiy evolyutsiyasi va huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Maqolada YevrAzESning boshqaruv tizimi, uning Yevropa Ittifoqi va ASEAN modellari bilan o'ziga xos farqlari va o'xshashliklari qiyosiy o'rganilgan. Shuningdek, tashkilotning transport, energetika va mehnat migratsiyasi sohalaridagi ahamiyati hamda O'zbekistonning ushbu integratsion tuzilmadagi ishtiroki va istiqbollari yoritilgan. YevrAzESning Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqiga (YeOI) transformatsiyalashuvi integratsiyaning yangi bosqichi sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: *byudjet, Byudjet kodeksi, byudjet jarayoni, byudjet qonunchiligi, korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaviy omillar.*

**Евразийское экономическое сообщество:
эволюция формирования и сравнительный
анализ с другими интеграционными
моделями**

Анвар Юлдашев,

профессор Академии государственной
политики и управления при Президенте

Республики Узбекистан,

доктор исторических наук

Аннотация: в статье исследуется институционализация процессов региональной интеграции на постсоветском пространстве, в частности в Центральной Азии, на примере Евразийского экономического сообщества (ЕврАзЭС). Анализируется историческая эволюция и правовые основы организации, начиная с Таможенного союза 1995 года до Астанинского договора 2000 года. В статье проводится сравнительный анализ системы

управления ЕврАзЭС с моделями Европейского Союза и АСЕАН. Освещается значение организации в сферах транспорта, энергетики и трудовой миграции, а также участие и перспективы Узбекистана в этой интеграционной структуре. Трансформация ЕврАзЭС в Евразийский экономический союз (ЕАЭС) оценивается как новый этап интеграции.

Ключевые слова: *ЕврАзЭС, интеграция, Центральная Азия, институционализация, сравнительный анализ, Европейский Союз, АСЕАН, ЕАЭС, Узбекистан, таможенный союз, региональная безопасность, экономическое сотрудничество.*

Eurasian economic community (EurAsEC): evolution of formation and comparative analysis with other integration models

Anvar E.Yuldashev,

Professor of the Academy of Public Policy and Administration under the President of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Historical Sciences

Abstract : this article examines the institutionalization of regional integration processes in the post-Soviet space, specifically in Central Asia, using the example of the Eurasian Economic Community (EurAsEC). The historical evolution and legal foundations of the organization are analyzed, from the 1995 Customs Union to the 2000 Astana Treaty. The article provides a comparative analysis of EurAsEC's governance system with the models of the European Union and ASEAN. It highlights the organization's significance in transport,

energy, and labor migration sectors, as well as Uzbekistan's participation and prospects within this integration framework. The transformation of EurAsEC into the Eurasian Economic Union (EAEU) is evaluated as a new stage of integration.

Key words: *EurAsEC, integration, Central Asia, institutionalization, comparative analysis, European Union, ASEAN, EAEU, Uzbekistan, customs union, regional security, economic cooperation, regionalism.*

Postsovet makonida, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida mintaqaviy integratsiya jarayonlarini tadqiq etish zamonaviy iqtisodiy va siyosiy fanlarning dolzarb yo'nalishlaridan biridir. XX asr oxirida sobiq Ittifoq iqtisodiy tizimining parchalanishi natijasida yuzaga kelgan ishlab chiqarish zanjirlarining uzilishi, bojxona to'siqlari va transport izolyatsiyasi mintaqa davlatlari oldiga yangi tipdagi institutsional birlashuv zaruriyatini qo'ydi. Ushbu jarayonda Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyati (YevrAzES) nafaqat iqtisodiy blok, balki mintaqaviy xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlovchi muhim geoiqtisodiy mexanizm sifatida maydonga chiqdi.

YevrAzESning tarixiy ildizlari 1995-yil 20-yanvarda Rossiya, Belarus va Qozog'iston o'rtasida imzolangan Bojxona ittifoqi to'g'risidagi bitimga borib taqaladi. Mazkur bitim ikki bosqichda amalga oshirilgan: 1995-yil 6-yanvarda Rossiya va Belarus o'rtasida ikki tomonlama shartnoma imzolangan. 1995-yil 20-yanvar kuni Qozog'iston ushbu bitimga qo'shilgan va uch tomonlama Bojxona ittifoqi vujudga kelgan. Bu hujjat iqtisodiy aloqalarni tiklash, bojxona to'siqlarini olib tashlash va yagona iqtisodiy hudud sari tashlangan birinchi

jiddiy qadam sifatida e'tirof etiladi. Biroq MDH doirasidagi ko'plab kelishuvlarning deklarativ xarakterda ekanligi integratsiyani yangi, qat'iy formatga o'tkazishni talab qildi.

Rossiya Xalqlar do'stligi universiteti ilmiy xodimi Sergey Barov tomonidan "Markaziy Osiyo integratsiyasining siyosiy muammolari" mavzusida tayyorlangan dissertatsiyaning ahamiyatli jihati shundaki, unda regional integratsiyaning nazariy jihatlarini bilan bir qatorda, uning amaliy siyosiy jihatlarini ham o'rganilgan. Mazkur ilmiy ishda integratsiya jarayonlarining tarixiy va geosiyosiy jihatlarini yoritilgan hamda SHHT, MDH, EOIH (YevrAzES), KHT (ODKB) misollarida integratsiyalashuv modellarining qiyosiy tahlili keltirilgan [1].

Qozog'istonlik A.Koshanov va B.Xusainovlar "Markaziy Osiyo va Kavkaz" jurnalidagi "Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiyalashuv muammolari" nomli maqolalarida Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiyalashuv jarayonlari, unda uchraydigan muammolar, ta'sir etuvchi ijobiy va salbiy jihatlarini yoritib berishgan [2].

Sankt-Peterburg davlat universiteti professori, siyosatshunos olimi Natalya Yereminaning "Yevraziya Ekspert" ilmiy jurnalidagi "Rossiyadan qochish: AQShning Markaziy Osiyoda faollashuvi ortida nima turadi?" ("Ставка на отрыв от России: что стоит за активизацией США в Центральной Азии?") nomli maqolasida Qo'shma Shtatlar ko'p yillar davomida Rossiyaning eng yaqin qo'shnilaridan uzib, uni yakka ko'yishga harakat qilayotgani ko'rsatilgan [3]. N.Yereminaning ta'kidlashicha, mintaqaviy mamlakatlari va Rossiya Federatsiyasini umumiy tarix bog'laydi, ularning bozorlari bir-

biriga bog'liq. Bundan tashqari, Rossiya mintaqaviy mamlakatlari uchun xavfsizlik kafolati hisoblanadi.

Tojikistonlik olimlar M.S.Sodiqov va F.X.Farodovlarning Tojikiston davlat moliya-iqtisod universiteti moliyaviy-iqtisodiy byulletenida chop etilgan "SHHTning integratsiya birlashmasi doirasida Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy integratsiyasi" nomli maqolasida Shanxay hamkorlik tashkiloti integratsiya birlashmasi doirasida Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy integratsiyalashuvi masalalari tahlil qilingan. Maqolaning e'tiborga molik jihati shundan iboratki, Markaziy Osiyo mamlakatlari makroiqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish asosida SHHT amaliy faoliyati samaradorligi, shuningdek, SHHT dasturlari doirasida Markaziy Osiyo davlatlarining bir-biri bilan o'zaro aloqalar xarakteri, o'zaro manfaatli hamkorlik va mintaqani yanada rivojlantirish masalalari belgilab berilganligi aks etgan. Maqola yakunida mualliflar, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va hamkorlikni rivojlantirishda zamonaviy chaqiriq va tahdidlarga qarshi kurashish masalalariga ham alohida e'tibor qaratishgan [4]. Ularning fikricha, SHHT yangi turdagi mintaqaviy hamkorlik tashkiloti sifatida butun jahon iqtisodiyotini rivojlantirishning harakatlan-tiruvchi kuchiga aylanishi mumkin.

Yuqoridagi ijobiy fikrlar bilan bir qatorda, ayrim mutaxassislar tomonidan Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiyalashuvi jarayoni pessimistik ruhda baholangan. Xususan, Rossiya Iqtisodiyot Oliy maktabi Milliy tadqiqot instituti ilmiy xodimi Darya Rekeda yaqin kelajakda Markaziy Osiyoda integratsion birlashmaning barqaror formatini yaratish dargumon, deb yozadi [5]. Uning fikricha,

geosiyosiy bosim sharoitida Markaziy Osiyo davlatlari o'zlarini postsovet davlatlari uyushmasi sifatida emas, balki tashqi dunyo bilan mustaqil aloqa qilish uchun barqaror va istiqbolli mintaqa sifatida ko'rsatishga intiladi. Ular mintaqaviy hamkorlikka intilmoqda, lekin integratsiyaning barqaror, institutsional shakllarini yaratishda sustlik qilishmoqda, bunday urinishlar 1990-2000-yillarda ham kuzatilgan. Butun mintaqaning jahon hamjamiyatidagi ishtirokini oshirishga qaratilgan shart-sharoitlarning qay darajada tayyorligini kelgusi yillarda ko'rishimiz mumkin, deya xulosa qiladi.

O'zbekistonlik siyosatshunos, «Bilim karvoni» nodavlat ilmiy muassasa direktori Farhod Tolipovning fikricha, hududiy integratsiya masalasiga mudom uzoq istiqbol, noaniq loyiha yohud utopiya sifatida qaralmoqda. Mazkur davlatlarning mintaqaviy hamkorligi bugunga kelib, (deyarli o'n yillik tanaffusdan so'ng, shaxsan Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan) tiklangan bo'lsa-da, bu borada hal qiluvchi uchta savol hanuzgacha yechilmagan va hatto chuqur o'rganilmagandek tuyuladi. Bu – integratsiyaning konsepsiyasi, modeli va dinamikasi masalasidir [6]. Siyosatshunosning fikricha, mintaqadagi tahlil markazlari va ilmiy jamoatchilik, endilikda, shu masala yechimlari bo'yicha mulohazalar panoramasini kengaytirsam, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Zamonaviy reallik nuqtayi nazaridan qaralganda, Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlari dunyoda va yaqin atrofdagi harbiy mojarolar, siyosiy beqarorlik, iqtisodiy tengsizlik va xavfsizlikka tahdidlar kabi qator omillarga duch kelmoqda. Bundan tashqari, mintaqaning tashqi o'yinchilari o'rtasidagi

raqobat, ichki ishlarga aralashuvi, mintaqada turli muammolar, xususan, suv resurslarining notekis taqsimlanishi, migratsiya kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqillikka erishishi mintaqa tarixida yangi bosqichni boshlab berib, uni global siyosatda passiv obyektidan faol subyektga aylantirdi. Bugungi kunda mintaqa geostrategik joylashuvi, boy tabiiy resurslari va madaniy-sivilizatsion ko'priklar sifatidagi o'rni bilan xalqaro munosabatlar tizimida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, mintaqada integratsiya jarayonlari asta-sekin rivojlanayotgan bo'lsa-da, ular hali to'liq institutsionallashtirilmagan va konseptual jihatdan yetarlicha shakllanmagan.

Muallif nuqtayi nazaridan, Markaziy Osiyo davlatlarining ko'p vektorli tashqi siyosati va o'zaro ishonchga asoslangan hamkorlikni kuchaytirish orqali mintaqa subyektligini yanada mustahkamlash mumkin. Biroq tashqi geosiyosiy bosimlar, ichki ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va resurslar taqsimoti bilan bog'liq ziddiyatlar integratsiya jarayonlarini cheklovchi asosiy omillar bo'lib qolmoqda. Shu sababli, mintaqada barqaror integratsiya modelini shakllantirish uchun nazariy yondashuvlar va amaliy mexanizmlarni uyg'unlashtirish, shuningdek, umumiy mintaqaviy manfaatlariga asoslangan strategik yondashuvni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Yevrosiyo makonida iqtisodiy integratsiyaning institutsionallashtirish 2000-yillar boshida yangi bosqichga ko'tarildi. 2000-yil 10-oktyabrda Ostona shahrida imzolangan "Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyatini tashkil etish to'g'risida"gi Shartnoma (Договор об учреждении Евразийского экономического

сообщества) mintaqadagi integratsiya jarayonlarini huquqiy jihatdan mustahkamlagan asosiy hujjat hisoblanadi[1]. Mazkur hujjatning qabul qilinishimintaqaviy hamkorlikni deklarativ xarakterdan amaliy iqtisodiy mexanizmga o'tkazish yo'lidagi dastlabki jiddiy qadam bo'ldi. [7]

Shartnomaning 2-moddasida tashkilotning bosh maqsadi va vazifalari belgilab berilgan bo'lib, uning eng muhim iqtiboslardan biri quyidagicha: "Tomonlar ushbu Shartnoma bilan Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyatini (keyingi o'rinlarda — Hamjamiyat yoki YevrAzES deb yuritiladi) tashkil etadilar. Hamjamiyat Bojxona ittifoqi va Yagona iqtisodiy makonni shakllantirish jarayonini samarali ilgari surish, shuningdek, iqtisodiy va gumanitar sohalarda integratsiyani chuqurlashtirish bilan bog'liq boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun tashkil etiladi". Shuningdek, tashkilotning xalqaro huquqiy maqomi haqida 1-moddada shunday deyilgan: "Hamjamiyat davlatlararo xalqaro tashkilot maqomiga va ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan vakolatlarga ega bo'ladi" [7].

Ushbu hujjatning o'ziga xosligi shundaki, u avvalgi (1990-yillardagi) deklarativ kelishuvlardan farqli o'laroq, qat'iy institutsional tuzilmani (Davlatlararo kengash, Integratsiya qo'mitasi, Parlamentlararo assambleya va Hamjamiyat sudi) joriy etdi. Bu esa, keyinchalik Bojxona ittifoqi va hozirgi Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeAll) uchun poydevor bo'lib xizmat qildi. YevrAzESni tashkil etish zaruriyati va asosiy strategik maqsadi shtirokchi davlatlar (Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya va Tojikiston (O'zbekiston 2006-2008 yillarda a'zo bo'lgan) o'rtasida yagona iqtisodiy makon va Bojxona

ittifoqini shakllantirishni yakunlash edi. Tadqiqotchi S. Pritchins ta'kidlaganidek, *"YevrAzES nafaqat savdo to'siqlarini olib tashlash, balki globallashuv sharoitida postsovet mamlakatlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash instrumenti sifatida ko'rildi"* [8].

O'zbekistonning 2006-yilda tashkilotga qo'shilishi mintaqaviy siyosatda katta burilish bo'lgan edi. Biroq bu a'zolik qisqa muddatli bo'lib chiqdi. A'zo bo'lish sabablari:

1. Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkiloti (MOHT) bilan birlashish. 2005-yilda MOHT va YevrAzES birlashishga qaror qildi. O'zbekiston MOHT a'zosi sifatida, tabiiy ravishda, YevrAzESga o'tdi.
2. Xavfsizlik va geosiyosat. Andijon voqealaridan so'ng (2005-y.) O'zbekistonning G'arb bilan munosabatlari sovuqlashgan va Rossiya bilan strategik yaqinlashuv kuchaygan edi.

Chiqib ketish sabablari (2008-yil):

2008-yilning oktyabr oyida O'zbekiston o'z a'zolidigini to'xtatishini e'lon qildi. Bunga quyidagilar sabab bo'ldi:

1. Integratsiya samaradorligining pastligi. O'zbekiston hukumati tashkilot doirasida qabul qilinayotgan qarorlar iqtisodiy manfaatlariga to'liq javob bermasligini ta'kidladi.
2. Bojxona ittifoqiga qarshilik. Rossiya, Qozog'iston va Belarus Bojxona ittifoqini tuzishga kirishganda, O'zbekiston o'z milliy iqtisodiyotini (ayniqsa, avtomobilsozlik va yengil sanoat) himoya qilish maqsadida bojlarini keskin pasaytirishga tayyor emas edi.
3. Ikki tomonlama munosabatlarga ustuvorlik. Toshkent ko'p tomonlama

tashkilotlardan ko'ra, hamkor davlatlar bilan ikki tomonlama (bilateral) kelishuvlarni afzal ko'rdi.

Hozirgi kuzatuvchilik maqomi (2020-yildan boshlab)

YevrAzES 2014-yilda tashkil topgan bo'lsa-da, uning merosxo'ri bo'lgan Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (YEOII) bilan O'zbekiston yangi formatda hamkorlikni boshladi. 2020-yilda O'zbekiston YEOII'da kuzatuvchi davlat maqomini oldi.

1-jadval

O'zbekistonning YevrAzESdagi a'zoligi (2006–2008)

Bosqich	Davr	Asosiy xususiyati	Natija
Institutsional shakllanish	2000–2003	Hamjamiyatning huquqiy va ma'muriy apparatini yaratish.	Boshqaruv organlari (Davlatlararo kengash, Qo'mita) tashkil etildi.
Iqtisodiy muvofiqlashtirish	2003–2010	Savdo tariflarini bixillashtirish va yagona bozor elementlarini sinab ko'rish.	Investitsiya va energetika bo'yicha dastlabki kelishuvlar imzolandi.
Yuqori integratsiya (transformatsiya)	2010–2014	Bojxona ittifoqi (BI) va Yagona iqtisodiy makonning (YAIM) yaratilishi.	YevrAzES tugatilib, uning o'rnida yanada kuchli tuzilma – YEOII tashkil topdi.

Kuzatuvchilik maqomining sabablari va mantig'i:

Iqtisodiy zaruriyat. O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining katta qismi (ayniqsa, qishloq xo'ja-ligi va to'qimachilik) YEOII davlatlariga to'g'ri keladi. Kuzatuvchi sifatida standartlarni o'rganish eksportni osonlashtiradi.

Mehnat migratsiyasi. Rossiya va Qozog'istondagi millionlab o'zbekistonlik migrantlar uchun qulay sharoitlar yaratish masalasi integratsiya tuzilmasi bilan yaqin bo'lishni talab etadi.

Transport koridorlari. Temir yo'l va logistika yo'nalishlarini muvofiqlashtirish

uchun ushbu tashkilot bilan muloqot zarur.

Ehtiyotkorlik strategiyasi. Toshkent 2006-2008-yillardagi tajribani hisobga olib, to'g'ridan-to'g'ri a'zo bo'lishdan oldin tashkilotning ichki bozor konyunkturasi, veto huquqlari va milliy suverenitetga ta'sirini chuqur tahlil qilmoqda.

YevrAzES davri O'zbekiston uchun integratsiya jarayonlarida "sinov maydoni" vazifasini o'tadi. Bugungi kuzatuvchilik maqomi esa, hissiyotlarga emas, balki aniq pragmatik iqtisodiy hisob-kitoblarga asoslangan bo'lib, mamlakat manfaatlarini himoya qilgan holda mintaqaviy bozorga moslashish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada muallif tomonidan ilmiy

abstraksiyalash, xronologik kuzatuv, induksiya, deduksiya, solishitma tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tashkilot tarixiga nazar tashlasak, YevrAzESning boshqaruv tizimi Yevropa Ittifoqi modeliga yaqinlashtirilgan holda qurilgan edi. Unda davlatlararo kengash mavjud bo'lib, Oliy organi sifatida davlat rahbarlari darajasida strategik qarorlar qabul qilish belgilangan edi. Shuningdek, tashkilotning integratsiya qo'mitasi uning doimiy ishlovchi ijro organi bo'lib, vazirliklar darajasida muvofiqlashtirish ishlarini olib boradi. Bundan tashqari, tashkil etilgan hamjamiyat sudi nizolarni huquqiy hal etish va shartnoma normalarini bir xilda talqin qilish uchun mas'ul.

YevrAzES oldiga qo'yilgan vazifalarning, klassik iqtisodiy integratsiya nazariyasiga (Bela Balassa modeli) muvofiq ravishda, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi ko'zda tutilgan edi:

1. Erkin savdo tartibini yakunlash: tovarlar va xizmatlar harakatidagi miqdoriy cheklavlarni olib tashlash.
2. Yagona bojxona tarifini shakllantirish: uchinchi davlatlarga nisbatan muvofiqlashtirilgan tashqi iqtisodiy siyosat yuritish.
3. Kapital va ishchi kuchining erkin harakati: mehnat migratsiyasini tartibga solish va o'zaro investitsiyalar uchun qulay muhit yaratish.
4. Tarmoqlararo hamkorlik: energetika, transport va agrosanoat majmualarida qo'shma loyihalarni amalga oshirish.

Tadqiqotchi T. Mansurov ta'kidlaganidek: "YevrAzESning asosiy yutug'i– bu mintaqaviy stan-dartlarni xalqaro me'yorlarga moslashtirish va yagona huquqiy makon yaratishga urinish bo'ldi" [9].

Biroq, tashkilot ichki ziddiyatlar va iqtisodiy ko'rsatkichlarning notekisligi sababli 2014-yilda o'z faoliyatini to'xtatdi va uning negizida yanada chuqur integratsiyalashgan tuzilma — Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOI) tashkil etildi [10].

Mintaqaviy tuzilmalarni solishtirish uchun biz uchta asosiy mezonni asos qilib olamiz: institutsional tuzilish, qaror qabul qilish mexanizmi va integratsiya chuqurligi.

Yevropa Ittifoqi iqtisodiy manfaatlardan siyosiy birlikka qarab (iqtisodiy manfaatlar birligi siyosiy ziddiyatlarni bartaraf etgan) rivojlangan bo'lsa, YevrAzES modelida siyosiy iroda iqtisodiy integratsiyani harakatlantiruvchi asosiy kuch bo'ldi. Yeldagi kabi "supranatsionallik" tamoyil YevrAzESda to'liq ishlamadi, chunki a'zo davlatlar o'z suverenitetining muhim qismini markaziy organga berishga tayyor emas edilar.

ASEAN bilan taqqoslash: "Normativ" va "Institutsional" yondashuv

Ma'lumki, Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari (ASEAN) integratsiyasi qat'iy huquqiy majburiyatlarga emas, balki "yumshoq huquq" va o'zaro ishonchga tayanadi. YevrAzES esa, aksincha, qattiq huquqiy baza va sud organlarini yaratishga intildi. Biroq, ASEANning iqtisodiy samaradorligi uning moslashuvchanligida bo'lsa, YevrAzESning samaradorligi ko'p jihatdan energiya resurslari va Rossiya bozoriga bog'lanib qolgan.

Yel dan farqli o'laroq, YevrAzES da iqtisodiy integratsiya "yuqoridan pastga" (top-down) tamoyili asosida, ya'ni siyosiy iroda turtkisi bilan amalga oshirildi. ASEAN bilan qiyoslaganda esa, YevrAzES qattiqroq institutsional tuzilmaga ega bo'lsa-da, mintaqaviy ishonch darajasi Janubi-sharqiy Osiyodagidek barqaror emas.

2-jadval

**Xalqaro qiyosiy tahlil: Yevrazes, Yevropa Ittifoqi (YI) va ASEAN,
Yel bilan taqqoslash: "yuqoridan pastga" va "pastdan yuqoriga"**

Tahlil mezonlari	Yevropa Ittifoqi (YI)	ASEAN	YevrAzES (YeOII)
Integratsiya tipi	Yuqori darajadagi ustmilliy (supranatsional) ittifoq	Davlatlararo hamkorlik va konsultativ forum	Aralash tip: davlatlararo va qisman ustmilliy
Qaror qabul qilish	"Ko'pchilik ovozi" va Yevropa Parlamenti roli yuqori	Konsensus (barchaning roziligi) – "ASEAN Way"	Ovoz berishda iqtisodiy vazn va konsensus uyg'unligi
Valyuta tizimi	Yagona valyuta (yevro) mavjud	Milliy valyutalar ustuvor	Milliy valyutalar, o'zaro hisob-kitoblarda rubl ulushi yuqori
Siyosiy birlik	Umumiy tashqi siyosat va xavfsizlik strategiyasi	Ichki ishlarga aralashmaslik prinsipi mutlaq	Iqtisodiy ustuvorlik, lekin kuchli geosiyosiy bog'liqlik

3-jadval

Yel, ASEAN va YevrAzES modellarining qiyosiy tahlili

Qiyosiy mezonlar	Yevropa Ittifoqi (Yel)	ASEAN	YevrAzES (hozirgi YeOII)
Integratsiya tipi	Yuqori darajadagi supranatsionallik (ustmilliylik)	Konsultativ va konsensusga asoslangan (ASEAN Way)	Aralash (ustmilliy organlar va kuchli davlatlararo ta'sir).
Siyosiy komponent	Yagona tashqi va xavfsizlik siyosati mavjud.	Siyosiy neytrallik va ichki ishlarga aralashmaslik.	Iqtisodiy ustuvorlik, lekin geosiyosiy omil yuqori.
Qaror qabul qilish	Ko'pchilik ovozi va yagona valyuta (yevro).	Konsensus (barchaning roziligi).	Ovoz berishda iqtisodiy vazn omili (Rossiyaning yetakchiligi).

Markaziy Osiyo uchun ahamiyati

YevrAzES tajribasi shuni ko'rsatdiki, Markaziy Osiyo mintaqaviy integratsiyasi faqatgina bojxona imtiyozlari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Uning kelajakdagi istiqbollari quyidagi omillarga bog'liq:

1. Transport koridorlarini diversifikatsiya qilish: "Shimol-Janub" va "Sharq-G'arb" loyihalarining integratsiyalashuvi.
2. Raqamli integratsiya: yagona raqamli makon yaratish orqali byurokratik to'siqlarni kamaytirish.
3. Investitsiya muhiti: ichki bozorni xorijiy investorlar uchun yagona standartlar asosida jozibador qilish.

YevrAzES faoliyati davrida Markaziy Osiyo mintaqasining integratsiyalashuvida bir nechta muhim omillar ko'zga tashlandi:

1. Transport va tranzit. Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan mintaqalar davlatlari uchun YevrAzES doirasidagi yagona transport makoni hayotiy zaruriyat hisoblanadi. Bu "Shimol-Janub" va "Sharq-G'arb" koridorlarining samaradorligini oshiradi.

2. Energetika xavfsizligi. Mintaqa davlatlarining suv va energetika resurslaridan foydalanishdagi ziddiyatlarini institutsional darajada hal etishga urinishlar qilindi.

3. Mehnat migratsiyasi va inson kapitali. YevrAzES doirasida mehnat migrantlari uchun ijtimoiy kafolatlar va patentsiz ishlash tizimlarining yaratilishi mintaqadagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qildi.

O'zbekistonning 2006-yilda YevrAzESga a'zo bo'lishi va 2008-yilda o'z faoliyatini to'xtatishi milliy iqtisodiyotni himoya qilish va integratsion majburiyatlar o'rtasidagi murakkab muvozanatni ifodalaydi. Biroq, 2020-yildan boshlab, O'zbekistonning YeOilda

kuzatuvchi maqomini olishi, YevrAzES davridagi tarixiy tajribani hisobga olgan holda yangi bosqichga chiqqanligini anglatadi.

YevrAzESning 2014-yilda YeOIlga transformatsiya qilinishi uning tugaganini emas, balki integ-ratsiyaning yangi, yuqori bosqichiga o'tganidan dalolat beradi[11].

Shu bilan bir qatorda, kelajakdagi istiqbollar quyidagilarda ifodalanishi mumkin:

- **Sanoat kooperatsiyasini kengaytirish.** Faqat xomashyo eksport qilishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish (klaster tizimi).
- **Raqamli integratsiya.** Bojxona va savdo jarayonlarini to'liq raqamlashtirish orqali "yashirin iqtisodiyot"ga barham berish.
- **Grin-texnologiyalar va ekologiya.** Markaziy Osiyodagi suv tanqisligi muammosini yechishda umumiy investitsion loyihalarni amalga oshirish.

YevrAzES Markaziy Osiyo davlatlari uchun global iqtisodiy beqarorlik sharoitida o'ziga xos "xavfsizlik bolishchasi" vazifasini o'tadi. Ushbu tashkilot tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali integratsiya uchun faqatgina iqtisodiy ko'rsatkichlar yetarli emas, balki siyosiy ishonch, huquqiy normalarning bir xilligi va har bir a'zo davlatning milliy manfaatlarini hurmat qilish muvozanati zarur. Ushbu tajribani o'rganish, Markaziy Osiyoning kelajakdagi ko'p tomonlama hamkorlik modellarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, YevrAzES Markaziy Osiyo davlatlari uchun iqtisodiy modernizatsiya maktabi vazifasini o'tadi. Uning tarixiy merosi va xatolari bugungi kundagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik formatlarini belgilab beruvchi muhim omildir.

Markaziy Osiyo uchun ahamiyati

YevrAzES tajribasi shuni ko'rsatdiki, Markaziy Osiyo mintaqaviy integratsiyasi faqatgina bojxona imtiyozlari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Uning kelajakdagi istiqbollari quyidagi omillarga bog'liq:

1. Transport koridorlarini diversifikatsiya qilish: "Shimol-Janub" va "Sharq-G'arb" loyihalarining integratsiyalashuvi.
2. Raqamli integratsiya: yagona raqamli makon yaratish orqali byurokratik to'siqlarni kamaytirish.
3. Investitsiya muhiti: ichki bozorni xorijiy investorlar uchun yagona standartlar asosida jozibador qilish.

YevrAzES faoliyati davrida Markaziy Osiyo mintaqasining integratsiyalashuvida bir nechta muhim omillar ko'zga tashlandi:

1. Transport va tranzit. Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan mintaqa davlatlari uchun YevrAzESdoirasidagi yagona transport makoni hayotiy zaruriyat hisoblanadi. Bu "Shimol-Janub" va "Sharq-G'arb" koridorlarining samaradorligini oshiradi.

2. Energetika xavfsizligi. Mintaqa davlatlarining suv va energetika resurslaridan foydalanishdagi ziddiyatlarini institutsional darajada hal etishga urinishlar qilindi.

3. Mehnat migratsiyasi va inson kapitali. YevrAzES doirasida mehnat migrantlari uchun ijtimoiy kafolatlar va patentsiz ishlash tizimlarining yaratilishi mintaqadagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qildi.

O'zbekistonning 2006-yilda YevrAzESga a'zo bo'lishi va 2008-yilda o'z faoliyatini to'xtatishi milliy iqtisodiyotni himoya qilish va integratsion majburiyatlar o'rtasidagi murakkab muvozanatni ifodalaydi. Biroq, 2020-yildan boshlab, O'zbekistonning YeOilda

kuzatuvchi maqomini olishi, YevrAzES davridagi tarixiy tajribani hisobga olgan holda yangi bosqichga chiqqanligini anglatadi.

YevrAzESning 2014-yilda YeOIlga transformatsiya qilinishi uning tugaganini emas, balki integ-ratsiyaning yangi, yuqori bosqichiga o'tganidan dalolat beradi[11].

Shu bilan bir qatorda, kelajakdagi istiqbollar quyidagilarda ifodalanishi mumkin:

- **Sanoat kooperatsiyasini kengaytirish.** Faqat xomashyo eksport qilishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish (klaster tizimi).
- **Raqamli integratsiya.** Bojxona va savdo jarayonlarini to'liq raqamlashtirish orqali "yashirin iqtisodiyot"ga barham berish.
- **Grin-texnologiyalar va ekologiya.** Markaziy Osiyodagi suv tanqisligi muammosini yechishda umumiy investitsion loyihalarni amalga oshirish.

YevrAzES Markaziy Osiyo davlatlari uchun global iqtisodiy beqarorlik sharoitida o'ziga xos "xavfsizlik bolishchasi" vazifasini o'tadi. Ushbu tashkilot tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali integratsiya uchun faqatgina iqtisodiy ko'rsatkichlar yetarli emas, balki siyosiy ishonch, huquqiy normalarning bir xilligi va har bir a'zo davlatning milliy manfaatlarini hurmat qilish muvozanati zarur. Ushbu tajribani o'rganish, Markaziy Osiyoning kelajakdagi ko'p tomonlama hamkorlik modellarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, YevrAzES Markaziy Osiyo davlatlari uchun iqtisodiy modernizatsiya maktabi vazifasini o'tadi. Uning tarixiy merosi va xatolari bugungi kundagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik formatlarini belgilab beruvchi muhim omildir.

Markaziy Osiyo uchun ahamiyati

YevrAzES tajribasi shuni ko'rsatdiki, Markaziy Osiyo mintaqaviy integratsiyasi faqatgina bojxona imtiyozlari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Uning kelajakdagi istiqbollari quyidagi omillarga bog'liq:

1. Transport koridorlarini diversifikatsiya qilish: "Shimol-Janub" va "Sharq-G'arb" loyihalarining integratsiyalashuvi.
2. Raqamli integratsiya: yagona raqamli makon yaratish orqali byurokratik to'siqlarni kamaytirish.
3. Investitsiya muhiti: ichki bozorni xorijiy investorlar uchun yagona standartlar asosida jozibador qilish.

YevrAzES faoliyati davrida Markaziy Osiyo mintaqasining integratsiyalashuvida bir nechta muhim omillar ko'zga tashlandi:

1. Transport va tranzit. Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan mintaqalar davlatlari uchun YevrAzES doirasidagi yagona transport makoni hayotiy zaruriyat hisoblanadi. Bu "Shimol-Janub" va "Sharq-G'arb" koridorlarining samaradorligini oshiradi.

2. Energetika xavfsizligi. Mintaqa davlatlarining suv va energetika resurslaridan foydalanishdagi ziddiyatlarini institutsional darajada hal etishga urinishlar qilindi.

3. Mehnat migratsiyasi va inson kapitali. YevrAzES doirasida mehnat migrantlari uchun ijtimoiy kafolatlar va patentsiz ishlash tizimlarining yaratilishi mintaqadagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qildi.

O'zbekistonning 2006-yilda YevrAzESga a'zo bo'lishi va 2008-yilda o'z faoliyatini to'xtatishi milliy iqtisodiyotni himoya qilish va integratsion majburiyatlar o'rtasidagi murakkab muvozanatni ifodalaydi. Biroq, 2020-yildan boshlab, O'zbekistonning YeOilda

kuzatuvchi maqomini olishi, YevrAzES davridagi tarixiy tajribani hisobga olgan holda yangi bosqichga chiqqanligini anglatadi.

YevrAzESning 2014-yilda YeOIlga transformatsiya qilinishi uning tugaganini emas, balki integ-ratsiyaning yangi, yuqori bosqichiga o'tganidan dalolat beradi[11].

Shu bilan bir qatorda, kelajakdagi istiqbollar quyidagilarda ifodalanishi mumkin:

- **Sanoat kooperatsiyasini kengaytirish.** Faqat xomashyo eksport qilishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish (klaster tizimi).
- **Raqamli integratsiya.** Bojxona va savdo jarayonlarini to'liq raqamlashtirish orqali "yashirin iqtisodiyot"ga barham berish.
- **Grin-texnologiyalar va ekologiya.** Markaziy Osiyodagi suv tanqisligi muammosini yechishda umumiy investitsion loyihalarni amalga oshirish.

YevrAzES Markaziy Osiyo davlatlari uchun global iqtisodiy beqarorlik sharoitida o'ziga xos "xavfsizlik bolishchasi" vazifasini o'tadi. Ushbu tashkilot tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali integratsiya uchun faqatgina iqtisodiy ko'rsatkichlar yetarli emas, balki siyosiy ishonch, huquqiy normalarning bir xilligi va har bir a'zo davlatning milliy manfaatlarini hurmat qilish muvozanati zarur. Ushbu tajribani o'rganish, Markaziy Osiyoning kelajakdagi ko'p tomonlama hamkorlik modellarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, YevrAzES Markaziy Osiyo davlatlari uchun iqtisodiy modernizatsiya maktabi vazifasini o'tadi. Uning tarixiy merosi va xatolari bugungi kundagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik formatlarini belgilab beruvchi muhim omildir.

Manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Баров С.А. Политические проблемы интеграции в Центральной Азии.: дис. кандидат наук: 23.00.04 - Политические проблемы международных отношений. –Москва: РУДН, 2013.
2. Кошанов А., Хусаинов Б. Проблемы интеграции государств Центральной Азии // Центральная Азия и Кавказ. –2001. – № 1. – С. 79–80.
3. Еремина Н.В. Ставка на отрыв от России: что стоит за активизацией США в Центральной Азии. <https://eurasia.expert/chto-stoit-za-aktivizatsiey-ssha-v-tsentralnoy-azii/>.
4. Содиков М.С., Фародов Ф.Х. Экономическая интеграция Центрoазиатских стран в рамках интеграционного объединения ШОС//Финансово-экономический вестник ТГФЭУ. – Душанбе, 2020. –С.47-50.
5. Рекеда Д. Центральноазиатская интеграция: нескладывающийся пазл?[https:// ru.valdai club. com/a/highlights/tsentralnoaziatskaya-integratsiya/](https://ru.valdai.club.com/a/highlights/tsentralnoaziatskaya-integratsiya/)
6. Толипов Ф. Марказий Осиё минтақавий интеграцияси. Унинг концепцияси, модели ва динамикаси қандай бўлиши керак? <https://ishonch.uz/ru/news/markazi-osi-mintaavi-integracisi>.
7. Договор об учреждении Евразийского экономического сообщества. Астана, 10 октября 2000 г. // Собрание законодательства Республики Узбекистан.
8. Притчин С. А. Интеграционные процессы в Центральной Азии: вызовы и перспективы. – М.: ИМЭМО РАН, 2018.
9. Мансуров Т. А. Евразийская экономическая интеграция: опыт и перспективы. – Алматы, 2012.
- 10.Протокол о присоединении Российской Федерации к Договору между Республикой Казахстан, Кыргызской Республикой, Республикой Таджикистан и Республикой Узбекистан об учреждении Организации “Центрально-Азиатское Сотрудничество” от 28 февраля 2002 года. г. Душанбе”.
- 11.Протокол об интеграции Организации “Центрально-Азиатское Сотрудничество” в Евразийское экономическое сообщество от 23 июня 2006 года.